

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVASIYALAR VAZIRLIGI
BOSH ILMYIY-METODIK MARKAZ**

**Professor Shamsiddin Sharopovich Sharopov
tavalludining 85 yilligiga bag'ishlangan
Respublika ilmiy-amaliy anjuman
MATERIALLARI**

**Ta'limni transformatsiyalash sharoitida rahbar va pedagog
kadrlarni malakasini oshirish: zamonaviy tendensiyalar va
yondashuvlar**

Toshkent- 2023

УДК 37.018.46:378.14

“Ta’limni transformatsiyalash sharoitida rahbar va pedagog kadrlarni malakasini oshirish: zamonaviy tendensiyalar va yondashuvlar” mavzusidagi
Respublika ilmiy-amaliy anjuman
MATERIALLARI

“Ta’limni transformatsiyalash sharoitida rahbar va pedagog kadrlarni malakasini oshirish: zamonaviy tendensiyalar va yondashuvlar” mavzusidagi
Respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari (2023-yil 1-may, Toshkent) /
O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi
Bosh ilmiy-metodik markaz

Ilmiy qo‘mita raisi:

p.f.f.d (PhD) dotsent Shoymardonov T.T., Bosh ilmiy-metodik markaz direktori.

Ilmiy qo‘mita a‘zolari:

1. Isomov I., Bosh ilmiy-metodik markaz direktori o‘rinbosari.
2. p.f.f.d (PhD) Djurayev A., Bosh ilmiy-metodik markaz bo‘limi boshlig‘i.
3. p.f.f.d (PhD) Obidov A., Bosh ilmiy-metodik markaz bo‘limi boshlig‘i.
4. p.f.f.d (PhD) Kusharbayev J., Bosh ilmiy-metodik markaz bo‘limi boshlig‘i.
5. p.f.f.d (PhD) Xaqnazarova N., Bosh ilmiy-metodik markaz bo‘limi boshlig‘i.
6. p.f.f.d (PhD) Innazarov M., Bosh ilmiy-metodik markaz bo‘limi boshlig‘i.
7. Normatova D., Bosh ilmiy-metodik markaz bo‘limi boshlig‘i.
8. Buriyev E., Bosh ilmiy-metodik markaz.
9. professor Adizov B., Buxoro davlat universiteti huzuridagi mintaqaviy markaz.
10. professor Ahmadaliyev Y., Farg‘ona davlat universiteti huzuridagi mintaqaviy markaz.
11. professor Nazarova F., Bosh ilmiy-metodik markaz.
12. professor Irgasheva D., Toshkent axborot texnologiyalari universiteti huzuridagi tarmoq markaz.

FIDOIY USTOZ

Shamsiddin Sharopovich Sharopov 1938 yilning 1 may oyida Samarqand shahrida tug'ilgan. O'rta maktabni bitirgach, 1955 yilda O'rta Osiyo davlat universiteti (hozirgi O'zMU) ning tarix fakultetiga o'qishga kirib, uni 1960 yilda a'lo baholar bilan tugatgan va universitetga o'qituvchilikka tavsiya etilgan.

SH.Sharopov 1965 yilda tarix fanlari nomzodi, 1990 yilda esa tarix fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun dissertatsiyalarni muvaffaqiyatli himoya qilgan.

SH.Sharopov 1960 yildan boshlab tarix fakulteti o'qituvchisi, 1961 yildan universitet yoshlar qo'mitasi kotibi, 1962 yildan aspirant, dotsent, professor, kafedra mudiri, xorijiy davlatlar talabalarini tayyorlash fakulteti dekani, universitetning xalqaro munosabatlar bo'yicha prorektori hamda 18 yil mobaynida O'zbekiston Milliy universiteti huzuridagi Oliy Pedagogika instituti direktori lavozimlarida ishlagan. Hozirda Bosh ilmiy-metodik markaz faxriy professori hisoblanadilar.

Professor Sh.Sharopov pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish bo'yicha o'zining samarali hissasini qo'shib kelayotgan yetuk olimdir.

Professor Sh.Sharopov ilmiy-uslubiy va nazariy ishlarga katta e'tibor qaratgan. Tarixchi olim tomonidan 250 dan ziyod ilmiy va ilmiy-uslubiy ishlar, jumladan 15 ta monografiya, 4 ta darslik, risola va uslubiy to'plamlar nashr qilingan.

Professor Sh.Sharopov ko'plab shogirdlar tayyorlagan bo'lib, bugungi kunda ular shunday ustozga izdoshlik qilayotganliklari bilan faxrlanadilar. Uning rahbarligida 15 nafar fan nomzodi va fan doktorlari tayyorlangan.

Professor Sh.Sharopov ilmiy tadqiqot ishlari, jumladan, O'zbekistonda tarix fanini rivojlantirishga, respublika kasaba uyushmalari tarixi, faoliyati, kelajagini o'rganishga bag'ishlagan izlanishlari orqali kasaba uyushmalari tarixini respublikamizda birinchi bo'lib yorqin yoritgan va g'oyaviy muhim muammolarni ochib bergan.

Professor Sh.Sharopov rahbarligida qator xalqaro va viloyatlararo ilmiy-nazariy va uslubiy konferensiyalar tashkil etilgan. Shuningdek, olim xorijiy mamlakatlarda bo'lib o'tgan konferensiyalarda ilmiy ma'ruzalar qilgan. Jumladan, u Moskva (Rossiya), Ummon (Iordaniya), Vintiyan (Laos), Varshava

(Polsha), Berlin (Germaniya), Gavana (Kuba), Vashington (AQSH) universitetlarida Vatanimiz ilmiy salohiyatini namoyish etgan yetuk olimdir.

Professor Sh.Sharopov jamoat ishlarida faol qatnashib, bir necha yillar davomida O'zbekiston Milliy universiteti Ilmiy Kengashi, Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Bosh ilmiy-metodik markaz Ilmiy Kengashi a'zosi sifatida faoliyat yuritib kelmoqda.

Tarix fanlari doktori, professor Shamsiddin Sharopovich Sharopov haqidagi axborotni Markaziy Osiyo gumanitar tarixi va madaniyati bo'yicha olimlar Ma'lumotnomasidan ingliz tilida olish mumkin (AQShning Garvard universiteti, 1995, 237).

Professor Sh.Sharopov ikki marotaba O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Faxriy yorlig'i (1980, 1995 yillar), Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining "Oliy ta'lim a'lochisi", O'zbekiston Milliy universitetining "Buyuk xizmatlari uchun" medali bilan taqdirlangan. Professor Sh.Sharopov O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti, buyuk davlat va siyosat arbobi Islom Abdug'anievich Karimov tavalludining 80 yilligiga bag'ishlangan tadbir munosabati bilan "Oltin medal" bilan mukofotlangan.

2018 yil 12 aprelda O'zbekiston Faxriylari ijtimoiy faoliyatini qo'llab-quvvatlash jamg'armasi Vasiylik Kengashining "Mehnat faxriysi" ko'krak nishoni bilan mukofotlangan.

O'zbekiston Kasaba uyushmalari federatsiyasi ijroiya qo'mitasining 2021 yil 20 oktabrdagi Qaroriga asosan "Kasaba uyushmalari kuniga 1 yil" esdalik ko'krak nishoni bilan taqdirlandi. 2019 yilda bo'lib o'tgan Kasaba uyushmalari VIII qurultoyida qatnashgan.

Jumladan, professor Sh.Sharopovning Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, Bosh ilmiy-metodik markazi hamda Britaniya Kengashining O'zbekistondagi vakolatxonasi bilan hamkorlikda tashkillashtirilgan oliy ta'lim muassasalari rahbar kadrlari uchun "Ta'lim sifati menejmenti" yo'nalishidagi malaka oshirish kursi o'quv dasturini ishlab chiqishda va uning muhokamalarida faol ishtirokini alohida ta'kidlash lozim.

Professor Sh.Sharopovning bugungi faoliyati respublikamizda ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan keng ko'lamlı islohotlarda faol ishtirok etish, sifatini oshirish, mamlakatimiz ilm-fanini ravnaqiga xizmat qiluvchi bilimli, intellektual rivojlangan kadrlarni tayyorlashga qaratilgan.

Tarix fanlari doktori, professor Shamsiddin Sharopovich Sharopov mamlakatimizda tarix fani rivojiga, Milliy universitetda davlatimiz hayotining

barcha sohalari uchun kadrlar tayyorlashga, bu o'quv maskanida ilmiy-pedagogik ijod rivojini ta'minlashga, respublikamizda pedagoglar tayyorlash va ularning malakasini oshirishga ulkan hissa qo'shgan mohir pedagog, taniqli olimdir.

Ayni paytda mamlakatimiz yoshlariga bilim berish, ularni tarbiyalashni o'zining bosh maslagi deb bilgan, respublikamiz pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish ishiga ulkan hissa qo'shgan, bunga bosh-qosh bo'lgan ustozimiz professor Sh.Sharopov o'zining muborak 85 yoshini kuch-quvvatga to'lgan zabardast olim, mehribon ustoz sifatida kutib olmoqda.

Sh.Sharopovni ushbu qutlug' sana bilan samimiy muborakbod etar ekanmiz, uning ilmiy-pedagogik ishlari, mustaqil O'zbekistonimizning ravnaqi yo'lidagi serqirra faoliyatida ulkan zafarlar tilaymiz.

Havas qilsa arziydigan mazmunli hayot yo'lini bosib o'tgan, halol va pok, bukilmas iroda sohibi, ilm hamda yoshlar tarbiyasiga sadoqatning yorqin timsoli bo'lgan bu yetuk insonning hayot yo'li barchamiz uchun ibratlidir.

**Shoymardonov T.T.,
Bosh ilmiy-metodik markaz direktori**

MUNDARIJA

1-ШУБА.....	8
“HAYOT DAVOMIDA TA’LIM OLIISH”DA EHTIYOJGA ASOSLANGAN KURSLARNI TASHKIL ETISH ZARURIYATI	8
<i>Muslimov N.A. – p.f.d., professor</i>	<i>8</i>
НАУЧНАЯ ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ В УЧРЕЖДЕНИЯХ ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ КАК ФАКТОР РАЗВИТИЯ ИННОВАЦИОННО-КОММУНИКАТИВНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ.....	10
<i>Наумович Ольга Анатольевна¹, Бойко Мария Васильевна²</i>	<i>10</i>
OLIY TA’LIM VA MALAKA OSHIRISH TIZIMLARINI INTEGRATSIYALASHNING NAZARIY ASOSLARI	11
<i>Adizov B.R. – p.f.d., professor</i>	<i>11</i>
TA’LIMNI TRANSFORMATSIYALASH SHAROITIDA RAHBAR VA PEDAGOG KADRLARNI MALAKASINI OSHIRISH ISTIQBOLLARI	14
<i>Isomov I.I.</i>	<i>14</i>
PEDAGOGIK MALAKA OSHIRISHNING YANGI TA’LIM MAKONIGA EHTIYOJI	18
<i>Fayzullayeva Z.B. – p.f.f.d (PhD) dotsenti v.b.</i>	<i>18</i>
UZLUKSIZ MALAKA OSHIRISH TIZIMI VA PEDAGOGNING ILMIY, INNOVATSION FAOLIYATINI RIVOJLANISHTIRISH MASALALARI	20
<i>Toxiriyon A.Sh. – t.f.n.</i>	<i>20</i>
OLIY TA’LIM TIZIMIDA RAHBAR VA PEDAGOG XODIMLARINING UZLUKSIZ TA’LIM OLIISHI	23
<i>Omonov Sh.B. – t.f.f.d (PhD)</i>	<i>23</i>
YUQORI MALAKALI KADRLARNI TAYYORLASHDA UZLUKSIZ TA’LIM TIZIMINING ROLI	26
<i>Haqnazarova N.Q. – p.f.f.d (PhD)</i>	<i>26</i>
АНАЛИЗ МЕТОДИК ИСПОЛЬЗУЕМЫХ ПРИ НЕПРЕРЫВНОМ ОБРАЗОВАНИИ ПРЕПОДАВАТЕЛЯ ВЫСШЕЙ ШКОЛЫ	28
<i>Убайдуллаев К., Пирниязова Н.В.</i>	<i>28</i>
THEORETICAL ISSUES OF IMPROVING THE QUALITY OF TEACHERS’ PROFESSIONAL DEVELOPMENT PROCESSES	30
<i>Giyasova U.E. – Lecturer</i>	<i>30</i>
<i>Tashkent State Pedagogical University</i>	<i>30</i>
RAHBAR IMIDJINING BOSHQARUVDAGI AHAMIYATI	32
<i>Yusupov Q.D. – katta o‘qituvchi</i>	<i>32</i>
RAHBAR VA PEDAGOG KADRLARNING MALAKASINI OSHIRISH TIZIMIDA MUAMMOLAR VA ISTIQBOLLAR	34
<i>Taylakova G.B. – o‘qituvchi</i>	<i>34</i>
ПОВЫШЕНИЕ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ КВАЛИФИКАЦИИ СПЕЦИАЛИСТОВ	36
<i>Мухитдинова Ф.Р., Мирзаолимов О.</i>	<i>36</i>
ПУТИ РАЗВИТИЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНОГО МЫШЛЕНИЯ ПЕДАГОГА	39
<i>Абдуллаев Т.Я., Рузимбоев О.К.</i>	<i>39</i>
THE NEED FOR TRAINING TEACHERS IN MODERN CONDITIONS	41
<i>Damirova G.U. – Teacher</i>	<i>41</i>
АКАДЕМИК ЛИТSEYЛАР RAHBAR VA PEDAGOG KADRLARINING MALAKASINI OSHIRISH TIZIMINI ZAMONAVIY TA’LIM TALABLARI ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH	44
<i>Raxmatullayeva D.A., Bozorbayev I.I.</i>	<i>44</i>
АКАДЕМИК ЛИТSEYЛАР RAHBAR VA PEDAGOG KADRLARINING “HAYOT DAVOMIDA TA’LIM OLIISH” TAMOYILI ASOSIDA UZLUKSIZ MALAKASINI OSHIRISH	46
<i>Xolmatov A.A.- doktorant</i>	<i>46</i>
BOSHQARUV KOMPETENTLIGI TUSHUNCHASINING MAZMUNI VA TUZILMASI	47
<i>Ochilov X.A. – doktorant</i>	<i>47</i>
RAHBAR KADRLARNING MALAKASINI OSHIRISHNI TASHKIL ETISH XUSUSIYATLARI	51
<i>Doliyev A.T. – doktorant</i>	<i>51</i>
TA’LIM ISLOHOTI-FAROVON KELAJAK POYDEVORI.....	54
<i>Ro‘ziyev D. – magistr</i>	<i>54</i>
UZLUKSIZ TA’LIM TIZIMINI RIVOJLANTIRISHDA PEDAGOGIK INNOVATSIYALAR VA ULARGA INTEGRATSIYAVIY YONDASHUVLAR	56
<i>Nuriddinova A.B. – talaba</i>	<i>56</i>

<i>Nasibboyeva M.S. – assistant professor, Nishonov Q. – student</i>	231
BO'LAJAK O'QITUVCHILARDA KASBIY MADANIYATNI TAKOMILLASHTIRISH PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA	233
<i>Sharipova F.M. – doktorant</i>	233
TASKS OF STATISTICS IN THE STUDY OF LIVING STANDARDS.....	235
<i>Sufieva K.S.¹, Umarova M.A.²</i>	235
ADDITIONAL PROFESSIONAL EDUCATIONAL PROGRAM FOR ADVANCED TRAINING.....	237
<i>Umarova G.K. – assistant professor, Kodirova Sh.U. – student</i>	237
KNOWLEDGE OF A FOREIGN LANGUAGE IS THE KEY TO PROFESSIONAL SUCCESS	240
<i>Khazratova G.Sh.</i>	240
INTERACTIVE METHODS AS A TEACHING ISSUES IN HIGHER EDUCATION.....	242
<i>Gaybullaeva Kh.M. – senior teacher</i>	242
TO DEVELOP COMMUNICATIVE AND INNOVATIVE COMPETENCIES OF DIRECTORS AND PEDAGOGUES	244
<i>A'zamova M.J. – Teacher</i>	244
PEDAGOG KADRLAR MALAKASINI OSHIRISH DOLZARBLIGI VA GERMANIYA FEDERATIV RESPUBLIKASIDA MALAKA OSHIRISH TIZIMI	246
<i>Mannopova R.B.¹, Turdibekova D.U.²</i>	246
XORIY TAJRIBASIDA UZLUKSIZ KASBIY RIVOJLANISH KURSLARINING ROLI VA AHAMIYATI...249	249
<i>Nazarov A.A. – doktorant</i>	249
THE USE OF INTERACTIVE METHODS IN THE ORGANIZATION OF INDEPENDENT WORK OF STUDENTS	252
<i>Umarov I.U.</i>	252
ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ РАЗВИТИЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ КАДРОВ ИНОСТРАННЫХ ЯЗЫКОВ ВЫСШИХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ УЧРЕЖДЕНИЙ	254
<i>Хайдарова Ш.Б.¹, Маннопова Р.Б.²</i>	254
THE FORMATION OF MORAL VALUES BASED ON UZBEK TRADITIONS IN TEACHING OF STUDENTS OF PROFESSIONAL EDUCATION	258
<i>Ruzmetova N.</i>	258
FURTHER IMPROVING PROFESSIONAL AND SPEAKING COMPETENCE OF STUDENTS AT HIGHER EDUCATIONAL ESTABLISHMENTS	260
<i>Razikova F.K.</i>	260
DEVELOPMENT OF SOCIO-CULTURAL COMPETENCE BY ORGANIZING ADVANCED TRAINING COURSES FOR MANAGERS AND PEDAGOGUES OF THE HIGHER EDUCATION SYSTEM OF UZBEKISTAN AND BELARUS	263
<i>Bobojonova N.Kh.</i>	263
INTERNATIONAL EXPERIENCE OF PERSONNEL TRAINING AIMED AT MEETING THE PROFESSIONAL NEEDS OF MANAGERS AND EDUCATORS: THE CASE OF SOUTH KOREA	265
<i>Latipova G.</i>	265
PEDAGOG XODIMLARNING MALAKASINI OSHIRISHDA XORIJIY TAJRIBALAR	267
<i>Xolmatov A.A. – doktorant</i>	267
TIL TAFAKKUR KO'ZGUSI	269
<i>Iskandarov N.Z. – magistrant</i>	269
TA'LIMNI RIVOJLANTIRISHDA XALQARO TAJRIBALARDAN FOYDALANISH VA KREATIV FIKRLASH TENDENSIYALARI	272
<i>Qaxxarova Z.A. – magistrant</i>	272
4-ШУБА	275
MULTIMEDIYALI ELEKTRON KONTENT – MASOFAVIY KURSLARNING ASOSIY VOSITASI SIFATIDA	275
<i>Shoymardonov T.T., Buriyev E.A.</i>	275
RAHBAR VA PEDAGOG-KADRLAR MALAKASINI OSHIRISH VA QAYTA TAYYORLASHDA AXBOROT-KOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARINING O'RNI	278
<i>Ubaydullayev K., Samandarov B.S.</i>	278
ПЕРСПЕКТИВА ДИСТАНЦИОННЫХ КУРСОВ ПОВЫШЕНИЯ КВАЛИФИКАЦИИ РУКОВОДЯЩИХ И ПЕДАГОГИЧЕСКИХ КАДРОВ	280
<i>Закирова Ф.М. – д.п.н., проф.</i>	280

OLIY TA'LIMDA KADRLARNI BAHOLASH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI.....	283
<i>Irgasheva D.Ya. – t.f.d., prof.</i>	283
TA'LIM JARAYONLARINI RAQAMLASHTIRISH – QULAYLIK VA SHAFFOFLIKNI TA'MINLAYDI ..	288
<i>Qurolov Q.Q. – i.f.d.</i>	288
НОВЫЕ ПОДХОДЫ К ДИСТАНЦИОННОМУ ОБУЧЕНИЮ РУКОВОДЯЩИХ И ПЕДАГОГИЧЕСКИХ КАДРОВ ВЫСШИХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ УЧРЕЖДЕНИЙ.....	291
<i>Каримова В.А. – к.т.н.</i>	291
TA'LIMDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYA	293
<i>Bekchonova Sh.B. – dotsent.</i>	293
RAHBAR VA O'QITUVCHILARNING MALAKASINI OSHIRISHDA INTELLEKTUAL TA'LIM TIZIMLARIDAN FOYDALANISH.....	296
<i>Xamidov V.S. – dotsent</i>	296
OLIY TA'LIMNI MASOFAVIY O'QITISH SHAKLIDA TASHKIL ETISHNING MUHIM YO'NALISHLARI	298
<i>Samiyeva Sh.X. – p.f.f.d. (PhD), dotsent</i>	298
TA'LIMDA ZAMONAVIY YONDASHUVLARNI JORIY ETISHNING ASPEKTLARI	300
<i>Obidov A.E. – p.f.f.d. (PhD), dots. v.b.</i>	300
O'QITUVCHILARNING KASBIY SALOHİYATLARINI RAQAMLI TA'LIM TEXNOLOGIYALARINI QO'LLASH ASOSIDA MUAMMO VA EHTIYOJLARINI ANIQLASH (MALAKA OSHIRISH MISOLIDA)	302
<i>Otamurodov G'.R. – p.f.f.d., (PhD) dotsent</i>	302
RAQAMLI TA'LIM MUHITINI TASHKIL ETISHNING ASPEKTLARI	310
<i>Begimqulov H.Sh. – p.f.f.d (PhD), dotsent v.b. Pedagogik innovatsiyalar instituti</i>	310
RAQAMLI TRANSFORMATSIYA JARAYONIDA RAHBAR VA PEDAGOG KADRLARNI MALAKASINI OSHIRISHNING INNOVATSION USULLARI: RAQAMLI KORPORATIV TA'LIM MISOLIDA	312
<i>Umarova Z.A. – p.f.f.d., dots. v.b.</i>	312
KOMPYUTERLI ANIMATSIYANI O'QITISHNING ELEKTRON TA'LIM PLATFORMASINI YARATISH TEXNOLOGIYASI	314
<i>Bakiyeva Z.R. – p.f.f.d. (PhD), dotsent v.b.</i>	314
FUTHER IMPROVEMENT OF THE INFORMATION CULTURE OF A TEACHER IN THE PROCESS OF PROFESSIONAL ACTIVITY	316
<i>Saydazimova D.X. – Associated professor</i>	316
XALQ TA'LIMI XODIMLARINI “HAYOT DAVOMIDA O'QISH” TAMOYILI ASOSIDA UZLUKSIZ KASBIY RIVOJLANTIRISH.....	318
<i>Alkarov E.M. – p.f.f.d (PhD)</i>	318
PEDAGOG KADRLARNI TAYYORLASH, XALQ TA'LIMI XODIMLARINI QAYTA TAYYORLASH VA ULARNING MALAKASINI OSHIRISH TIZIMIDA TA'LIM SIFATI VA SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA ZAMONAVIY AXBOROT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI.	322
<i>Umarova F.A. – p.f.f.d, dotsent v.b.</i>	322
KOMPYUTERLI ANIMATSIYANI BLENDED LEARNING TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANIB O'QITISH	324
<i>Bakiyeva Z.R. – p.f.f.d (PhD), dotsent v.b.</i>	324
SMART-TA'LIM TEXNOLOGIYALARI ASOSIDA SHAXSGA YO'NALTIRILGAN MASOFAVIY MALAKA OSHIRISH KURSLARI TAKOMILLASHTIRISH	326
<i>Adashboyev Sh.M.</i>	326
TA'LIM JARAYONIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING AFZALLIKLARI ..	328
<i>Qamariddinov R.Sh. ¹, Yorqulova D.Sh. ²</i>	328
KVALIMETRIYA VA UNING DOLZARB MUAMMOLARI	332
<i>Mamatkarimov K.Z. – doktorant</i>	332
SCRATCH VOSITASIDA MAKTAB O'QUVCHILARINING DASTURLASH KOMPETENTLIGINI TAKOMILLASHTIRISH	338
<i>Normatov O.M.</i>	338
“ELEKTRONIKADA KOMPYUTERLI MODELLASH” FANINI O'QITISHNI TAKOMILLASHTIRISH ...	340
<i>Hamroqulov Sh.I., Kushiyev G'.A.¹, O'roqova D.O.²</i>	340
RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ORQALI BOSHLANG'ICH SINFI O'QUVCHILARINING KOMPETENSIYALARINI SHAKLLANTIRISH VA RIVOJLANTIRISH.....	342
<i>Azamov V.F.</i>	342

TA'LIM TIZIMINI RIVOJLANTIRISHDA MASOFAVIY MALAKA OSHIRISHNING O'RNI	344
<i>Bozorbayev I.I. – doktorant</i>	344
RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA PEDAGOG KADRLARNING KASBIY RIVOJLANISHINI STARTEGIK LOYIHALASH MUAMMOLARI	346
<i>Doliyev A.T. – doktorant</i>	346
RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA MALAKA OSHIRISH KURSLARINI TASHKIL ETISH VA TAKOMILLASHTIRISH	350
<i>Dusmuradov Q.E. – doktorant</i>	350
PROFESSIONAL TA'LIM MUASSASALARI O'QUVCHILARINING TA'LIM METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH ORQALI AXBOROT BILAN ISHLASH KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHNING DIDAKTIK TAMOYILLARI	353
<i>Mirsaidov I.T. – doktorant</i>	353
OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA AXBOROT XAVFSIZLIGI BO'YICHA TAYANCH KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK MUAMMOLARI SIFATIDA	355
TA'LIM TIZIMIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYADAN FOYDALANISH VA ISTIQBOLLARI	358
<i>Sharipov A.A. – doktorant</i>	358
PROFESSIONAL TA'LIM TIZIMIDA MASOFAVIY MALAKA OSHIRISH JARAYONINI TASHKIL ETISH	361
<i>Nosirov B.G'. – doktorant</i>	361
OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA TA'LIM JARAYONINI TASHKIL ETISHDA KREDIT-MODUL TIZIMI	364
<i>Mamatkarimov K.Z. – doktorant</i>	364
NASHRIYOTDA GRAFIK DIZAYNI, G'OYALAR VA RANG MODELLARI BILAN ISHLASH	367
<i>Majidova Gulhayo Abdirazzoq qizi</i>	367
ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHDO'TAU O'QITUVCHISI	367
TA'LIM JARAYONIDA BYOD TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH AFZALLIKLARI	369
<i>Saidova Z.R. – doktorant</i>	369
TA'LIMNI TRANSFORMATSIYALASH SHAROITIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING O'RNI ...	371
<i>Ahmedov A.M.</i>	371
TA'LIM JARAYONIDA AXBOROT MADANIYATINI SHAKLLANTIRISH	372
<i>Raxmatullayev D.R. – mustaqil tadqiqotchi</i>	372
АНАЛИТИКА БОЛЬШИХ ДАННЫХ И MACHINE LEARNING В ОБРАЗОВАНИИ:	375
<i>Муратов Э.И.¹, Иминов М.¹</i>	375
MULTIMEDIALI O'QUV SINFI HAQIDA TUSHUNCHA	377
<i>O'roqova Sh.B., Abdirimova D.B.</i>	377
АНАЛИТИКА БОЛЬШИХ ДАННЫХ (BIG DATA) В ОБРАЗОВАНИИ	380
<i>Муратов Э.И.¹, Серикбаев Б.²</i>	380
ELEKTRON O'QUV QO'LLANMALAR YARATISH VA ULARGA QO'YILADIGAN TALABLAR	382
<i>O'roqova Sh.B.¹, Aytbayeva A.N.²</i>	382
TALABALARDA KITOBXONLIK MADANIYATIGA QIZIQISHNI SHAKLLANTIRISH	385
<i>Umarkulova K. – tadqiqotchi</i>	385

NASHRIYOTDA GRAFIK DIZAYNI, G'OYALAR VA RANG MODELLARI BILAN ISHLASH

Majidova Gulhayo Abdirazzoq qizi

Alisher Navoiy nomidagi ToshDO'TAU o'qituvchisi

Annotatsiya: Maqolada noshirlik ishi talabalarida ijodkorlikni oshirish, grafik dizaynda g'oyalarni tadbiq etish va ularni nashriyotda qo'llay olish qobiliyatini rivojlantirish masalalari ko'rib chiqilgan va tahlil etilgan.

Kalit so'zlar: noshirlik ishi, ta'lim, talaba, g'oya, shakllanish, grafika, grafik dizayn, rang modellari.

Mamlakatimizda fan, ta'lim-tarbiya va ishlab chiqarish integratsiyasini ta'minlash, oliy ta'lim tizimini rivojlantirish, moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, ta'lim shakllari va mazmuni takomillashtirish borasida olib borilayotgan islohotlar o'quv jarayoniga ilg'or pedagogik texnologiyalarni joriy etish imkoniyatlarini kengaytirmoqda. Shu bilan birga bo'lajak noshirlarni tayyorlash samaradorligini oshirishga doir tizimli yondashuvlar, kompyuter grafikasi, grafik dizayn hamda g'oyalar bilan ishlashning ijobiy natijaviyligini ta'minlash mexanizmi yetarli emasligi kuzatilmoqda.

Aslida grafika nima va nashriyot tizimida g'oyalarni grafik dizaynga bog'lagan holatda qanday qo'llash mumkin?

Grafik dizayn - bu maqsadga qaratilgan san'at. Bu rasmlarni, ramzlarni yoki hatto so'zlarni ishlatib, muammoni hal qilish yoki muayyan maqsadlarga erishish uchun ijodiy va tizimli rejani o'z ichiga oladi. Bu turli xil grafik elementlar va vositalardan foydalangan holda vizual aloqa, tushuncha va g'oyalarni estetik ifodalashdir. Nashriyotda kitob, jurnal, gazeta va boshqa nashrlarni chop etishda grafik dizayndan foydalanish maqsadga muvofiq. Bunda bizga bir qancha grafik dasturlar lozim. Masalan: Adobe Illustrator, CorelDraw, 3Ds Max va boshqalar.

Noshirlik, nashriyot ishi — nashriyotlar tashkil etish, kitoblar, gazeta, jurnallar, tasviriy san'at asarlar, bosma mahsulotlarini tayyorlash, nashr qilish va uni tarqatishga oid soha. Nashriyotlar chiqaradigan mahsulotining turiga qarab — kitob nashriyoti, kitob-jurnal nashriyoti, gazeta-jurnal nashriyoti va qanday o'quvchilarga mo'ljallanganligiga ko'ra — ilmiy adabiyot, ommaviy adabiyot, bolalar adabiyoti, o'smirlar adabiyoti nashriyotlari va hokazoga bo'linadi; mavzusiga ko'ra — universal va muayyan sohaga ixtisoslashgan nashriyotlar bor. Demak ko'rinib turibdiki noshirlik ishi talabalariga turli sohalar bo'yicha chop etiladigan kitob, jurnal va ilmiy tadqiqotlar dizaynini, g'oyalarni grafik dizaynga bog'lagan holatda chop etishni o'rgatish lozim. Kataloglarni joylashtirish yoki matnlarning to'g'ri vizual ierarxiyasiga yordam beradigan oddiy to'rlarni yaratish tahririyat dizaynining kaliti hisoblanadi. Shuning uchun ham yaxshi tahririyat dizayneri tipografiya va juda ko'p dizaynga ega bo'lishi kerak chunki ikkalasi ham yonma-yon yuradi. Tahririyat dizayni va uning kundalik faoliyatdagi yoki kompaniya va marketing faoliyatiga qanday ta'sir qilishini chuqurroq o'rganiladi. Tahririyat dizayni, so'zdan ko'rinib turibdiki, grafik san'at va umuman grafik dizaynning keng oilasiga kiruvchi texnikadir. Bu dizaynning asosan matbaa sektori bilan bog'liq bo'lgan barcha narsalarni joylashtirish va loyihalash uchun mas'ul bo'lgan qismidir.: jurnallar, flayerlar, kataloglar, tashrif qog'ozlari, plakatlar va boshqalar.

G'oya — inson tafakkurida vujudga keladigan, jamiyat va olamlarni maqsad sari yetaklaydigan fikr. Grafik dizaynda g'oya, fikr va ma'lumotlarni obrazlar orqali insonlarga to'g'ri yetkazish vositasi hisoblanadi.

Nashriyotda grafik dizayndan foydalanish jarayonida g'oya muhim rol o'ynagani kabi g'oyani namoyon etishda ranglar ham muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Rang modeli -

poligrafiyada yoki monitoring rangli kanallarida foydalanish mumkin bo'lgan bo'yoqlarning chegaralangan soni yordamida ranglar namoyish qilinadigan tizim. Turli xil rangli modellarda ranglar turlicha formulalar yordamida ifodalanadi. Rang modelini ranglar to'plami, ya'ni rang modeli qismlari birikmasi yordamida hosil bo'ladigan palitra bilan adashtirmaslik kerak. Yana rang modelini tasvirni kodlashtirish usuli bilan aniqlanadigan fayl formati bilan adashtirmaslik lozim (fayl formatlari haqida ushbu bobning keyingi bo'limlarida to'liq ma'lumotlar keltiriladi). Masalan, fayl probal.gif quyidagi parametrlarga ega bolishi mumkin: RGB - rang modeli, Web safe - palitra, rastr tasvir turi, GIF - formatli fayl. Rang modeli chop etishga yoki tasvirni monitorida namoyish qilinishiga qarab asosiy ranglarni ajratish yoki qo'shish yordamida tus yaratishni mo'ljallaydi. Rangli poligrafiyada rangning taqsimlanish jarayoni muhim.

Poligrafiyada asosiy professional grafik muharrirlarda standart bo'yicha taklif qilinuvchi eng ko'p tarqalgan rang modeli (Cyan, Magenta, Yellow, black - CMYK). Bu modelning nomi ko'pqatlamli chop etishda qo'llaniladigan 4 ta tiniq bo'yoqlardan kelib chiqqan. Nashriyotda chop etish vaqtida 4 ta bo'yoq uchun 1 ta klishedan foydalaniladi va qog'ozga ketma-ket har bir kliselarga berilib boriladi. Siyoh tiniq bo'lgani uchun ulami bir joyga berish mumkin va shu tarzda millionlab rang tuzlari olinadi. RGB keng tarqalgan rang modeli bo'lib, monitor ekranida tasvirni qayta tiklash uchun mo'ljallangan. Inson ko'zi qabul qiladigan ranglarning nusxasini olishdagi harakat bu modellarning asosida yotadi. HSB (Hue, Saturation, Brightness) modeli har bir rangning tusi, to'yinganligi va yorqinligi bilan aniqlanadi. Ba'zi pavtlarda u HSV (Hue, Saturation, Value) va HLS (Hue, Lightness, Saturation) deb nomlanadi. CMYK, RGB va HSB modellarining yaxshi hususiyatlari mujassamlashgan yangi LAB modeli ranglarning ekranda a'lo darajada tasvirlanishi namoyishi uchun mos bo'lganidek, 4 xil rangli tiniq bo'yoqlar orqali chop etish uchun mosdir.

Xulosa o'rnida aytish joizki, bo'lajak noshirga grafika, grafik dizayn, grafik dizaynda g'oyalar bilan ishlash va shuning bilan birga nashriyotda g'oyani qo'llay olish uchun rang modellaridan foydalanishni chuqur o'rgatish talabalarida kelajakdagi kasbiy faoliyatida ko'nikma hosil qilish imkoniyatini beradi. Ranglardan foydalana bilish qobiliyatini oshirish uchun albatta rang modellari bilan chuqur tanishtirish, hamda amalda qo'llash ko'nikmasini hosil qilib borish nashirlik ishi talabalarida kelajakda kasbiy mahoratiga katta hissa qo'shadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Design Thinking для НПО Методическое пособие 2021.
2. Самохвалова В.И. Творчество: божественный дар, космический принцип, родовая идентичность человека. // Человек и судьба мира, 2007. -С. 538.
3. Сластенин В.А. Профессионализм учителя как явление педагогической культуры. // «Педагогическое образование и наука», 2008, № 12. -С. 4-15.
4. Graphics and Multimedia for the Web with Adobe Creative Cloud: Navigating the Adobe Software 2018